



BOLALARNING IQTIDORINI BOYITISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Hamraqulova Sayram Farxodovna

Navoiy davlat universiteti Pedagogika

nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha)

1-kurs magistranti

Annotation

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarga bo'lgan e'tibor kuchayganligi va ular iqtidorini rivojlantirish masalasi dolzarb. Bolalarning iqtidorini boyitishda pedagogik yondashuvlar muhim hisoblanadi. Shuningdek, individual yondashuv va ijodkorlikni rivojlantirish kabilar asosida yondashilgan.

Kalit so'zlar

Iqtidor, bolalar, iqtidorni rivojlantirish, individual yondashuv, ijodkorlik, tanqidiy tafakkur, o'yin orqali ta'lim.

Kirish

Bolalarda iqtidorni shakllantirish va rivojlantirish ularning individual imkoniyatlarini kengaytiradi, undan tashqari kelajakda jamiyatda faol va yetuk shaxs bo'lishiga yordam beradi. Iqtidorni rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'llib, bu jarayonda psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism

Bolalarning iqtidorini erta aniqlash pedagogik jarayonning muhim bosqichi hisoblanadi. Erta yoshdagи bolalarda qobiliyatni aniqlash uchun turli test va kuzatish metodlaridan foydalilanildi.



Iqtidorga ega bo'lgan bolalar odatda yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtirish, mantiqiy fikrlash va original g'oyalarni ilgari surish kabi qobiliyatlarga ega bo'ladilar.

Quyida biz iqtidorni shakllantirishning asosiy yondashuvlar bilan tanishib chiqamiz:

- 1. Individuel yondashuv:** Har bir bolaning qobiliyatları va ehtiyojlari individualdir. Shu sababli, ta'lif jarayonida bolalarning qiziqishlari, qobiliyatları va motivatsiyaga asoslangan individual yondashuvlar qo'llanilishi kerak.
- 2. Ijodkorlikni rag'batlantirish:** Iqtidorli bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhimdir. Ijodkorlikni rivojlantirish orqali bolalar yangi g'oyalarni o'rganib, ularni amalga oshirishga intilishadi. Ijodkorlik faqat san'at sohasida emas, balki fan, texnologiya va ijtimoiy sohalarda ham rivojlantirilishi mumkin.
- 3. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish:** Tanqidiy fikrlash iqtidorli bolalarda muhim qobiliyat hisoblanadi. Ushbu qobiliyat bolalarga muammolarni yechish va masalalarni tahlil qilishda yordam beradi. Bu esa kelajakda kompleks masalalarni hal qilishga tayyorlaydi.
- 4. O'yin va faoliyatga asoslangan ta'lif:** Kichik yoshdagagi bolalarda o'yin orqali ta'lif berish iqtidorni shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bolalar o'yin orqali turli qobiliyatlarini namoyon qilishlari va rivojlantirishlari mumkin. Bu jarayonda ular ijodkorlik, jamoaviy ishlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" nomli kitobida quyida keltirilgan jumlalarni aytib o'tishni joiz deb bildim: " Men har gal yoshlarmiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi,

bebaho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman. Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz va azm-u shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o'z oldimizga ulkan marralarni qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchunchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim mакtab va oliv ta'limi hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz" deydi muhtaram prezidentimiz. Bu jumlalardan shuni anglashimiz kerakki, yurtimizda amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarni amalga oshirish uchun yoshlarmiz, ayniqsa, iqtidorli yoshlarmizga talab va ehtiyoj katta. Demak bugungi kun yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, uni to'g'ri yo'naltirish, jamiyatda o'z o'rmini topish uchun yordam berish muhim masaladir. Bolalarning iqtidorini rivojlantirish va boyitish uchun ba'zi usullardan ham foydalanishimiz albatta samarali bo'ladi. Quyida shu usullar bilan tanishib chiqamiz:

- O'qishga rag'batlantirish:** Kichik yoshdan kitob o'qish odatini shakllantirish bolalarda qiziqishni rivojlantiradi. Turli mavzulardagi kitoblar bolalar dunyoqarashini kengaytiradi va bilimlarini oshiradi.
- Tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo'naltirish:** Savollar berib, javob topishga rag'batlantirish va muammolarni mustaqil hal qilishni o'rgatish. Turli loyihalar va eksperimentlar orqali ularni ijodiy yo'l bilan yechim izlashga undash.
- Turli to'garaklarga qatnashish:** San'at, sport, fan yoki texnologiya to'garaklari orqali olalar o'z qobiliyatlarini kashf qilishi va rivojlantirishi mumkin. Bu esa ularning qaysi yo'nalishda ko'proq qobiliyatga ega ekanligini bilishga yordam beradi.
- Qo'llab-quvvatlash va maqtash:** bolalarning har qanday yutug'ini qadrlash va ular bajarayotgan harakatlarni qo'llab-quvvatlash. Bu ularni o'z qobiliyatlariga ishonch bilan qarashga o'rgatadi.
- Musiqqa va san'at bilan shug'ullanish:** Musiqqa asboblarini chalishni o'rgatish yoki rasm chizishga yo'naltirish orqali ijodiy qobiliyatları boyiydi.

6. Mantiqiy va matematik o'yinlar o'ynatish: Shaxmat, boshqotirma va mantiqiy o'yinlar bolalarda diqqatni oshiradi va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

7. Texnologiyadan foydalanish: Ma'lumot olish va yangi bilimlarni o'rghanish uchun bolalarga texnologiya va internet imkoniyatlaridan to'gri foydalanishni o'rgatish. Maxsus dastur va ilovalar orqali bolalarning qiziqishlariga mos bilimlarni taqdim etish.

8. Erkin o'yin va eksperiment qilish imkonini berish: Bolalarga turli materiallar berib, ulardan o'zлari narsa yasash yoki turli tajribalarni sinab ko'rishga imkon berish.

Bu usullar bolalarning qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Eng muhimmi, bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga mustaqil fikrlash imkonini berish va ularning qiziqishlariga mos sharoit yaratishdir.

Iqtidorli bolalarni aniqlash va rivojlantirishda ijtimoiy muammolar ham mavjud. Ko'p hollarda ota-onalar va jamiyat tomonidan bu bolalar uchun kerakli sharoitlar yaratilmaydi. Shuningdek, maktab tizimlari va ta'lim jarayoni har doim ham iqtidorli bolalarning ehtiypjlariga mos kelmaydi. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar iqtidorli bolalarga individual yondashib, ularning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishlari kerak.

Xulosa

Bolalarning iqtidorini rivojlantirish va shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, unda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar faol ishtirok etishlari zarur. Iqtidorli bolalarga e'tibor berish va ularni qo'llab-quvvatlash nafaqat ularning shaxsiy yutuqlarini oshirishga, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim tizimida bolalarning iqtidorini rivojlantirish bo'yicha ilg'or pedagogik yondashuvlar va metodlar qo'llanilishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik"
Toshkent 165-bet 2023-y
2. Akhmedov, Majidov, Narimbetova, Kuralov, Yu. A (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education.
3. Tursunov A (2012) Bolalar va o'smirlar psixologiyasi
4. Qodirov M (2006) Yosh psixologiyasi
5. Renzulli J.S (1978) What Makes Giftedness